

**XOTIN-QIZLAR BILAN ISHLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING
МЕХАНИЗМИ.**

**МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ РАБОТЫ С
ЖЕНЩИНАМИ.**

**MECHANISMS FOR IMPROVING THE SYSTEM OF WORK WITH
WOMEN.**

Normurodova Gulnora Ikromovna
Jizzax davlat pedagogika instituti magistranti,
(+998995500785, buron2008@umail.uz)

Annotatsiya: Ushbu maqolada xotin-qizlar bilan ishlash tizimiga kiritilgan o'zgartirishlar va yangiliklar, olib borilayotgan islohotlar haqida fikrlar keltirilgan.

Аннотация: В данной статье представлены отзывы об изменениях и нововведениях в системе работы с женщинами, проводимых реформах.

Annotation: This article provides feedback on changes and innovations in the system of working with women, ongoing reforms.

Kalit so'zlar: xotin-qizlar, oila, xotin-qizlar tadbirkorligi, og'ir turmush sharoitidagi xotin-qizlar, "Ayollar daftari" o'zbekona urf-odat va an'analar.

Ключевые слова: женщины, семья, женское предпринимательство, женщины в трудных жизненных условиях, «Женская тетрадь», узбекские обычаи и традиции.

Keywords: women, family, women's entrepreneurship, women in difficult living conditions, Women's Notebook, Uzbek customs and traditions.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoevning 8-mart Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali yig'ilishda so'zlagan nutqida Xalqimiz azal-azaldan Ona siymosini, Ayol zotini Yaratganning ulug' ne'mati, tengsiz mo'jizasi, deb biladi, uni hamisha ardoqlab-asrab yashaydi. Yurtimiz zaminidagi "Bibixonim", "Qizbibi",

“Modarixon”, “Qirqqiz” majmuasi kabi tabarruk me’moriy obidalar ham ana shunday azaliy yuksak e’tibordan dalolat beradi. Ayni paytda biz insoniyat taraqqiyotiga unutilmas va beqiyos hissa qo’shgan buyuk ajdodlarimizni dunyoga keltirib, mehr bilan tarbiyalagan, ularni ulug’vor ishlarga ruhlantirib, kamarbasta bo’lgan fozila ayollarimiz bilan albatta faxrlanamiz. Ma’lumki, har qanday jamiyat va davlatning qay darajada xalqparvar hamda adolatli ekani uning xotin-qizlarga bo’lgan munosabati va g’amxo’rligi bilan belgilanadi. Xalqimizni rozi qilishdek oliy maqsadga erishish uchun xotin-qizlarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta’minlash, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasining muhim yo’nalishlaridan biriga aylandi.

Har qanday xalqning yetuklik darajasini, avvalo, ayollarning ilmiy-madaniy kamoloti belgilab berishi, oqila va o’qimishli onalar millatning buyuk kelajagini yaratishlari hammamizga yaxshi ayon. SHu bois donishmandlar:

“Bitta qiz bolani o’qitsangiz – butun oilani o’qitgan bo’lasiz”, deb bejiz ta’kidlamaganlar. Qizlarimizning zamonaviy bilimlar va kasb-hunar egasi bo’lib, jamiyatda hamda o’z oilasida munosib o’rin topishi uchun boshlagan ishlarimizni bundan keyin ham izchil davom ettiramiz – deb ta’kidladilar.

Bu borada, avvalo, 2022-2026 yillarga mo’ljallangan **Xotin-qizlar ta’limini qo’llab-quvvatlash milliy dasturini** qabul qilinishi va ushbu hujjat doirasida poytaxtda xotin-qizlar uchun alohida universitet va joylarda uning texnikumlarini tashkil etilishi, barcha talaba qizlarga ta’lim kontraktlarini to’lash uchun 7 yil muddatga foizsiz kredit berish tartibi joriy qilinishi xotin-qizlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochib beradi.

SHuningdek, 2022 yil 7 mart kuni O’zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-87 sonli “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo’llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi farmoni tasdiqlandi.

Oila, xotin-qizlar va keksa avlod vakillari bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish, mahallalarni qo’llab-quvvatlashni yanada takomillashtirish, mahallabay ishlashga mas’ul bo’lgan shaxslar faoliyatini samarali tashkil etish va o’zaro hamkorligini ta’minlash, xotin-qizlarning ta’lim va kasbiy ko’nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko’maklashish, tadbirkorligini qo’llab-quvvatlash, iqtidorli

yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish, gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish, hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda xotin-qizlarga ko'rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini ta'minlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirish, turar joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta'minlash, turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash, daromadlarini ko'paytirish borasida tizimli chora-tadbirlarni belgilash, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko'rsatish, ularni «Ayollar daftari» orqali manzilli qo'llab-quvvatlash, jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo'ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, oilaning tarbiyaviy-ta'lim salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda oilaviy qadriyatlarni saqlash, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash va ularning farovonlik darajasini oshirish Farmonning ustivor maqsadidir.

Respublikada oila va xotin-qizlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, ularning muammolariga tizimli yechim topish, vakolatli organlar faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish maqsadida yangi tizim Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tashkil etildi

Qo'mitaning asosiy vazifa va faoliyat yo'nalishlari etib xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rni va faolligini oshirish, gender tenglik kafolatlarini ta'minlash, ilmiy faoliyatga keng jalb qilish, oila va xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan oila va xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko'rsatish, xotin-qizlarga mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni egallashlari uchun zarur sharoitlar yaratish, qishloq joylardagi xotin-qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish, xotin-qizlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, oiladagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish, xotin-qizlar yo'nalishidagi nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatiga yordam ko'rsatish belgilandi.

Farmonda Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasini Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi sifatida qayta tashkil etish hamda Qo'mita tuzilmasiga o'tkazish, «Mahalla va oila» ilmiy-tadqiqot institutini «Oila va xotin-qizlar» ilmiy-tadqiqot instituti sifatida qayta tashkil etish hamda Qo'mita tuzilmasiga o'tkazish ko'zda tutilgan.

SHuningdek, Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti komissiyasi, «Oila va jamiyat» gazetasi, «Saodat» jurnali, «Markaziy Osiyoda jamiyat, gender va oila» xalqaro ilmiy jurnalini Qo'mita tuzilmasiga o'tkazish, «Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari» faoliyatini isloh qilish va takomillashtirish ham alohida belgilab o'tilgan.

Mahalladagi xotin-qizlar faoli lavozimlari joriy etilib, uning asosiy vazifalari etib xotin-qizlarni oila, mahalla va mehnat jamoalarida ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ma'naviyatini yuksaltirish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, zamonaviy namunali oilani shakllantirish, uning ma'naviy-axloqiy muhitini va an'anaviy oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish, ularning tadbirkorlik g'oyalarini amalga oshirish, ular faoliyatiga kredit, subsidiya va boshqa yordam choralari jalb qilish bo'yicha mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokim yordamchisi bilan hamkorlik qiladi, «Ayollar maslahat kengashlari» bilan yaqin hamkorlikda ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni tadbirkorlikka o'qitish, biznesga oid namunaviy rejalarni ishlab chiqish va kredit olishda ularga ko'maklashish, «Ayollar daftari»ga kiritilgan xotin-qizlar bilan manzilli ishlarni amalga oshirish, xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar, shu jumladan, nogironligi bo'lgan ayollar bilan yakka tartibda hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlarni olib borish, ularga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish ishlarini tashkil etish belgilangan.

Farmonga muvofiq, xotin-qizlarga dizayn, to'qimachilik, axborot texnologiyalari, tarmoqlar iqtisodiyoti, marketing va talab yuqori bo'lgan boshqa ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ta'lim beradigan alohida universitet ochiladi.

Har yili mart oyida amaliy innovatsion loyihalar bo'yicha "Olima ayol" tanlovi o'tkazib boriladi.

Qo'mita huzurida "Olima ayollar jamiyati" tuziladi va unga xotin-qizlarni amalda qo'llab-quvvatlash va yanada rag'batlantirish uchun 50 milliard so'm ajratiladi.

Qishloq joylaridagi ayollarni kasbga o'qitish, tadbirkorlikka jalb qilish va ish bilan ta'minlash maqsadida 2023 yildan har yili nodavlat tashkilotlarga BHMning 7 ming baravari miqdorigacha grantlar ajratiladi.

Davlat boshqaruvi akademiyasida rahbar xotin-qizlarni tayyorlash bo'yicha alohida o'quv kurslari tashkil etiladi hamda har yili kamida 100 nafar xotin-qizlar o'qitiladi.

2024 yil 1 yanvargacha barcha davlat organlari va tashkilotlari, ustavida davlat ulushi 50 foiz va undan ko'p bo'lgan tashkilotlar hamda ularning tizimidagi tashkilotlar rahbarlarining kamida 1 nafar o'rinbosari xotin-qizlar orasidan tayinlanadi.

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi doirasida xotin-qizlarning biznes-loyihalarini moliyalashtirish uchun 2022 yilda qo'shimcha 1 trillion so'm ajratiladi.

2022 yil 1 apreldan:

— tadbirkorlikni yangi boshlayotgan xotin-qizlarga ajratilayotgan subsidiya miqdori 7 million so'mdan 10 million so'mga oshiriladi;

— "Hunarmand" uyushmasi qoshidagi hunarmandchilik markazlarida kamida 40 foiz tadbirkor xotin-qizlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar joylashtiriladi.

— 2022 yilda subsidiyalarning kamida 40 foizi xotin-qizlarga yo'naltiriladi;

— Ijarada turgan "Ayollar daftari"ga kiritilgan ehtiyojmand xotin-qizlarga ijara to'lovining 50 foizi, ko'pi bilan 500 ming so'mgacha kompensatsiya beriladi.

2022 yil 1 apreldan:

— boquvchisini yo'qotgan xotin-qizlarning:

farzandlari davlat bog'chalariga to'lanadigan ota-onalar badalidan ozod qilinadi;

3 yoshgacha farzandlari uchun nodavlat bog'chalarga byudjetdan subsidiyalar ajratiladi.

— to'liq quvvat bilan ishlamayotgan davlat bog'chalariga 2 yoshdan 3 yoshgacha bolalarni pullik xizmat ko'rsatish shaklida qabul qilishga ruxsat beriladi;

— kechki smenada xotin-qizlar ishlaydigan korxona va tashkilotlar o'z huzurida bog'cha tashkil qilganda, ulardagi tarbiyachilarning ish haqi byudjetdan qoplab beriladi.

SHu bilan birga O'zbekistonda 1 apreldan boshlab to'liq quvvat bilan ishlamayotgan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga 2 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalarni pullik xizmat ko'rsatish shaklida qabul qilishga ruxsat berishi xam yosh bolali xotin-qizlar uchun imkoniyat eshigini ochadi.

Davlat bog'chalaridagi qo'shimcha pullik xizmatlar va ularning narxi muassasa kuzatuv kengashi yig'ilishida muhokama qilinib, so'ng tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'linmasi bilan kelishilgan holda bog'cha direktori tomonidan tasdiqlanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda amalga oshirilayotgan xar bir isloxotlarda xotin-qizlarning manfaatlari, ularning jamiyatdagi o'rni va mavqeini yanada oshirish, itzzat ikromini joyiga qo'yish, ularning og'irini yengil qilish masalalari ko'zlangan. Xotin-qizlardan faqatgina harakat, tinimsiz mehnat, xoxish va iroda, bilim va matonat talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F.Akramova. Z.Bilolova. I.Jovliev Oila entsiklopediyasi. "O'zbekston milliy entsiklopediyasi" davlat ilmiy nashryoti. Toshkent -2019 yil
2. prof. dr. Huriya Marti. Quroni karim va o'zbek tilidagi ma'nolari tarjimasi. Anqara, 2021 yil.
3. X.Axmedov, B.Muxtarov. O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda otinoyilarning o'rni. "SHafoat nur fayz" Toshkent -2021 yil
4. M.Komilov. Muhim savol-javoblar. Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021 y.-68 b.
5. O.Musurmanova. Oila - jamiyat tayanchi. Yoshlar nashryot uyi. Toshkent -2019 yil.
6. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni.2021 yil 5 iyul,O'RQ-699-son.
7. O.Musurmonova Ayollari ardoqlangan yurt.uslubiy risola. Toshkent-2021 yil

8. D.Karimova. Ma’rifatli Otinoyi “Matbaachi” Toshkent 2020 yil.

9. Yangi O’zbekiston demografik o’zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda.Toshkent -2021 yil

<https://lex.uz/pdfs/5899498>

https://t.me/huquqiyaxborot_lotin/3465

<https://t.me/huquqiyaxborot>